O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

710000 Andijon shahri Ergash Ashurov ko’chasi 17-uy. Tel: (74) 228-31-35

2024 - yil 1 - iyun 171-1-29-Q/24 Andijon shahar hokimligi

Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha guruhlar ochish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martadagi 132-sonli “Bolalarni boshlang‘ich majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024 yil 22 maydagi 06/381–sonli aloqa xati inobatga olinsin.

2. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 33-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta ish hajmi 10.5 soatlik, 42-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta ish hajmi 10.5 soatlik, 49-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 tadan ish hajmi 10.5 soatlik, 52-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta ish hajmi 9 soatlik, 45-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 2 ta ish hajmi 3,5-4 soatlik (qisqa muddatli guruh) guruhlari tashkil etilsin.

3. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (A.Usmanov)ga:

- Yangi tashkil etilgan guruhlarning moddiy texnika bazasi va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (A.Usmanov), Tibbiyot birlashmasi (M.Mirzaaxmedova), Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (Q.Tojidinov), Andijon shahar moliya va iqtisodiyot bo‘limi (U.Ruraqulov) bilan birgalikda tashkil etilayotgan guruhlarni belgilangan sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishi yuzasidan bir hafta muddatda o‘rganib chiqib, aniqlangan kamchiliklar va holatlar bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari bilan hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rishsin.

5. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov zimmasiga yuklatilsin.

Andijon shahar hokimi **G.Abduraxmanov**